

**ZAMONAVIY MEDIA DISKURSDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING
FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI VA ME‘YORIYLIK
MUAMMOLARI
(O‘ZBEK VA RUS TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)**

Meyliyeva Mohidil Odil qizi,

*Qarshi xalqaro Universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasida o‘qituvchisi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida o‘zbek va rus tillaridagi ommaviy axborot vositalari (OAV) hamda internet makonida so‘z o‘zlashtirish jarayonlarining dinamikasi tadqiq etiladi. Maqolada o‘zlashma leksikani identifikatsiya qilishning kompleks mezonlari (etimologik, fonetik-grafik, semantik va funksional-stilistik) ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning empirik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy mediamatnlardagi eng faol terminologik tizimlar — iqtisodiyot, bank ishi, axborot texnologiyalari (IT), kiberxavfsizlik va sport diskurslari chog‘ishtirma-statistik planda o‘rganilgan. Maqola yakunida an‘anaviy adabiy til me‘yori va dinamik media me‘yor o‘rtasidagi ziddiyatlar ochib berilib, ularni barqarorlashtirish hamda leksikografik kodifikatsiyalash bo‘yicha OAK talablariga mos tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z o‘zlashtirish, mediadiskurs, kalkalash, olinma so‘z, etimologik qatlam, media me‘yor, til integratsiyasi, miqdoriy tahlil, pragmatik funktsiya.

Аннотация. В данной научной статье исследуется динамика процессов заимствования слов в средствах массовой информации (СМИ) и интернет-пространстве узбекского и русского языков в условиях глобализации и цифровой трансформации. В статье разработаны комплексные критерии идентификации заимствованной лексики (этимологический, фонетико-графический, семантический и функционально-стилистический) и проанализированы их эмпирические основы. Также в сопоставительно-статистическом аспекте изучены наиболее активные терминологические системы в современных медиатекстах — экономический, банковский, ИТ, кибербезопасность и спортивный дискурсы. В заключении статьи раскрываются противоречия между традиционной литературной нормой и динамической медианормой, формируются рекомендации по их стабилизации и лексикографической кодификации.

Ключевые слова: заимствование слов, медиадискурс, калькирование, заимствованное слово, этимологический слой, медианорма, языковая интеграция, количественный анализ, прагматическая функция.

Abstract. This scientific article examines the dynamics of word borrowing processes in the mass media (media) and the internet space of Uzbek and Russian languages under the conditions of globalization and digital transformation. The article develops complex criteria for the identification of borrowed vocabulary (etymological, phonetic-graphic, semantic, and functional-stylistic) and analyzes their empirical bases. In addition, the most active terminological systems in modern media texts — economic, banking, IT, cybersecurity, and sports discourses — are studied in a comparative-statistical plan. At the end of the article, the contradictions between the traditional literary norm and the dynamic media norm are revealed, and recommendations for their stabilization and lexicographical codification are formulated.

Keywords: word borrowing, media discourse, calque, loanword, etymological layer, media norm, language integration, quantitative analysis, pragmatic function.

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishi va globallashuv jarayonlari tillarning ichki taraqqiyoti hamda lisoniy aloqalarning jadallashuviga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Har qanday milliy til yopiq tizim emas, aksincha, tashqi ta‘sirlarni qabul qiluvchi va o‘z ehtiyojlariga

moslashtiruvchi ochiq lisoniy tizim hisoblanadi. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o'zgarishlar, birinchi navbatda, tilning lug'at tarkibida, ya'ni leksikasida o'z aksini topadi. Ushbu o'zgarishlarning eng faol va tezkor ko'rinishi esa zamonaviy ommaviy axborot vositalari (OAV) hamda raqamli media platformalari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn nashrlar) tilida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu bois, o'zlashma so'zlarning mediamakonda qo'llanish xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish bugungi tilshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng til siyosati va davlat tilining ijtimoiy mavqeini mustahkamlash borasida tub islohotlar amalga oshirildi. Biroq bugungi raqamli davrda global axborot oqimining jadalligi milliy tiling o'ziga xosligi va sofligini saqlash bilan bir qatorda, jahon andozalariga mos terminologik tizimlarni shakllantirish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda. OAV tili bugungi kunda neologizmlar va xorijiy o'zlashmalarning xalq ommasi nutqiga kirib kelishida o'ziga xos "filtr" va ayni paytda "katalizator" vazifasini bajarmoqda. Shu nuqtai nazardan, rus va o'zbek tillari misolida o'zlashma so'zlarning kirib kelish mezonlarini belgilash, ularning funksional sohalarini tahlil qilish hamda adabiy til me'yorlari bilan munosabatini aniqlash tadqiqotning bosh maqsadi etib belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida tilning lug'at tarkibining tashqi manbalar hisobiga boyib borishi va takomillashuvi, o'zlashtirma so'zlarning qabul qilinishi hamda ularning ma'no taraqqiyoti, ikki tillilik hamda chet tillardan olingan so'zlarning tilga moslashtirilishi va tartibga solinishi masalalari bir qator yetakchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, E.A.Rayst, N.S.Avilova, G.G.Timofeyeva, E.Xaugen, V.V.Vinogradov, K.Lyutsinskiy, R.U.Arziyev, A.K.Kazkenova kabi olimlarning ishlarida leksikada yangi so'zlarning paydo bo'lishi, neologizmlarning hosil bo'lishi, mavjud birliklarning yangi semalar hisobiga kengayishi kabi masalalar o'rganilgan [1]. Nemis tilshunosi V.Bets o'z tadqiqotlarida donor tildan leksik birliklarni qabul qilish jarayoni ikki xil shaklda bo'lishini ta'kidlaydi: a) to'g'ridan to'g'ri so'z olish (transliteratsiya); b) kalkalash [2]. O'zbek va rus tillariga so'z o'zlashtirish jarayonida har ikkala holat ham faol tarzda qo'llanadi. Olimning to'g'ridan to'g'ri so'z o'zlashtirish (loanword) hamda kalkalash haqidagi fikrlari tilshunoslikda tez ommalashdi. Amerikalik tilshunos E.Xaugen kalkalash usulining o'zini 2 turga ajratdi: yarim kalkalash usuli (loanblends yoki hybrids) hamda to'liq kalkalash usuli (loan-translation) [3]. Olim kalkalashning bu ikki turi o'zaro qisman farqlanishini ta'kidlar ekan, buni ingliz tiliga o'zlashgan so'zlar misolida dalillaydi.

Rus tilshunosi L.P.Yefremov so'z o'zlashtirishning mohiyati, o'zlashma so'zlarni tushunishning oson usullarini yoritishga qaratilgan tadqiqot olib bordi [4]. Tilshunos Y.I.Kosenko tadqiqoti XVIII asrda baynalmilal terminlarning leksik-grammatik o'zlashtirilishi masalasini o'rgandi [5]. Tadqiqotchi g'arb so'zlarini o'zlashtirish tarixini sharhlar ekan, bunga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash muhim

ekanligini ta'kidlaydi. V.I.Dal asarlaridagi o'zlashma leksikaning genetik, janriy hamda stilistik xususiyatlari aniqlangan. Tadqiqotda rus tilidagi o'zlashma qatlam birliklarining o'zi ham bir necha turlarga ajratilgan: a) o'zlashmalar; b) terminologik leksika; d) lakunalar. T.V.Chikova ijodkorlarning milliy tilni sof saqlashdagi o'rni, boshqa vositalarga nisbatan samaradorligi masalalariga asosiy e'tiborni qaratgan. Y.V.Makeyeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda rus shoiri A.S.Pushkin ijodida qo'llangan G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan leksik birliklar tahlilga tortildi [6]. Tadqiqotchi o'zlashma so'zlarning rus tili leksik tizimida tutgan o'rni, uning zamonaviy rus leksikasi shakllanishidagi ahamiyati kabi masalalarni yoritir ekan, bunda A.S.Pushkin ijodi leksikasini o'rganish obekti sifatida yondashadi. Muqobilsiz va muqobili mavjud bo'lgan chet tili so'zi, faol va nafaol o'zlashma so'z kabi terminlarning mohiyati Y.V.Marinova tadqiqotida ochib berildi. So'zlarning og'zaki yoki yozma shaklda o'zlashishi masalasi ham tadqiqotda alohida fasl sifatida keltirilgan.

O'zbek tilshunosligida leksikani tavsiflash, uning semantik qatlamlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar haqida gap borar ekan, bunda Alisher Navoiyning xizmatlarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Shoir o'zbek va fors tillari leksikasini qiyosiy tahlil qilish jarayonida tabiat manzaralari, uy-ro'zg'or buyumlari, ov jarayoni, hayvonlar va qushlar turlari kabi ko'plab sohalarga oid yuzlab so'zlarni misol tariqasida keltirgan. Alisher Navoiy bu so'zlarning fors tilida muqobili yo'qligini, forslar esa ko'pincha o'sha o'zbekcha so'zlarning o'zini qo'llashga majbur bo'lishlarini ta'kidlagan. Natijada, buyuk mutafakkir o'zbek tilining boy lug'at boyligi, ifoda imkoniyatlari va o'ziga xos jihatlari har tomonlama namoyon etgan.

So'z o'zlashtirish borasidagi leksikografik amaliyotlarni amalga oshirishda mualliflar, tabiiyki, chuqur ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanadi. Shunday tadqiqotlar sirasiga tilshunos J.Hamdovning "Rus tilidan o'zbek tiliga so'z o'zlashtirish tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi)" mavzusidagi dissertatsiyasini keltirish mumkin [7]. Tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilining o'zbek til lug'at tarkibini boyitishdagi roli tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Ishning markazida rus tilidan olingan leksik birliklarning o'zbek tiliga kirib kelishi va ularning moslashuv jarayoni turadi. Tadqiqotchi bu davrda rus tili orqali kirgan internatsional va ruscha so'zlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy hayotdagi o'rmini ochib bergan. Tilshunos F.Abdullayev o'zbek tiliga o'zlashgan arab va fors-tojik tillarini tahlilga tortdi. Muallif arab tilining o'zbek tiliga ta'sirini tojik tiliga nisbatan unchalik chuqur emas deb hisoblaydi. Uning fikricha, arabcha o'zlashtirmalarning aksariyati kitobiy xarakterga ega bo'lib, asosan mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Shu bilan birga, tojikcha so'zlar esa konkret, hayotiy va zarur referentlarni bildiradi hamda o'zbek tilidagi o'rni nisbatan barqaror va mustahkamdir [8]. Tilshunos A.Hojiyev o'zbek tilining XX asr 20-yillaridan shu asrning 80-yillarigacha bo'lgan taraqqiyotini tahlilga tortdi [9]. Muallif asosiy e'tiborini ruscha va rus tili vositachiligida o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning tahliliga qaratadi. U o'z tadqiqotida

struktural-semantik kalka va yarim kalka kabi terminlarni qo'llashga zarurat yo'qligini ta'kidlaydi, chunki rus tilidan o'zbek tiliga birorta ham so'z yasovchi qo'shimcha qabul qilinmagan.

Istiqoldan keyin so'z o'zlashtirish hamda o'zlashmalarning tilga moslashishi yo'nalishi tilga doir siyosatning yangilanishi asosida ijobiy tomonga o'zgardi. Buda rus tilining ta'siri kamayishi, zarurat bo'lganda xorijiy tillardan to'g'ridan to'g'ri so'z o'zlashtirishga e'tibor qaratildi. Yetakchi tilshunoslarimizdan biri N.Mahmudov so'z o'zlashtirish masalasining metodologik asosi bo'lishi mumkin bo'lgan maqola yozdi [10]. U "o'zlashtirma so'z" va "olinma so'z" terminlarini o'zaro farqlash zarurligini qayd etadi. N.Mahmudov fikriga ko'ra, xorijiy so'z donor tildagi shaklini deyarli o'zgartirmasdan, ya'ni oluvchi tilning fonetik qonuniyatlariga moslashtirilmagan qabul qilingan bo'lsa, uni "olinma so'z" termini bilan, aksincha, o'zbek tilining talaffuz va fonetik qonuniyatlariga moslashtirilib, ichki tizimiga mos ravishda o'zgartirilgan bo'lsa, bunday so'zni "o'zlashtirma so'z" termini bilan nomlash lozim. Tilshunos D.Hasanova arabcha lug'aviy o'zlashmalarning o'zbek tili nominativ o'rni hamda ularning so'z yasaliş jarayonidagi o'rni masalalarini yoritdi [11]. Arab tilidagi leksik birliklar o'zbek tili leksikasida shu qadar singib ketganki, ularning meyorlashmagan qismi nihoyatda kam. Hatto ba'zi arabcha o'zlashmalarning morfologik o'zgarishi, derivatsion jarayonlardagi ishtiroki arab tili meyorlariga mos bo'lmay qolgan.

O'zlashma so'zlar bilan bog'liq zamonaviy tadqiqotlarda globalashuv jarayonida va raqamli media rivojida muhim o'rin tutayotgan inglizcha o'zlashmalarning o'zbek tiliga moslashishi masalasi tekshirilmoqda. Jumladan, A.Xudayqulov tadqiqotida rus va o'zbek rasmiy hujjatlarida inglizcha o'zlashmalarning tarixiy tadriji o'rganildi [12]. Tadqiqotda rus va o'zbek tillaridagi rasmiy ish hujjatlari matnlarida uchraydigan inglizcha leksik o'zlashmalarni, ularning miqdori, tarkibi, darajasi, moslashuvi yoki assimilyatsiyasi xususiyatlarini ilmiy asoslash maqsad qilib qo'yilgan. Tadqiqotda "o'zlashma" hamda "anglitsizm" terminlari orasidagi farqlar ochib berilgan. Mustaqillik yillarida o'zbek ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti A.X.To'raxo'jayeva tadqiqotida o'z aksini topdi [13]. Dissertatsiyada to'liq leksika emas, balki uning bir qismi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy leksika tanlab olindi. Chunki butun leksikani bir tadqiqot doirasida o'rganib chiqish imkonsizdir. Ishning asosiy obekti 1991-yildan keyin o'zbek tilida shakllangan ijtimoiy-siyosiy terminologiya va leksik birliklar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada o'zlashma so'zlarning zamonaviy media diskursdagi funksional va meyoriylik xususiyatlarini yoritish uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida o'zlashma birliklarni ajratib olish va ularni diagnostika qilish maqsadida to'rtta asosiy lisoniy mezon ishlab chiqildi:

1. Etimologik mezon: Leksik birlikning tub kelib chiqishi, donor manbasi va uning qabul qiluvchi tilga kirib kelish yo'llarini (bevosita yoki vositachi tillar orqali) aniqlash.

2. Fonetik-grafik mezon: Xorijiy soʻzning milliy til fonologik qonuniyatlariga (masalan, oʻzbek tilidagi singarmonizm qoldiqlari yoki urgʻu tizimi) va grafik tizimiga moslashish darajasini tekshirish.

3. Semantik mezon: Oʻzlashgan birlikning donor tildagi maʼnosi va mediamatndagi real semantik koʻlami oʻrtasidagi konversiya (kengayish, torayish yoki maʼno koʻchishi) hodisalarini aniqlash.

4. Funktsional-stilistik mezon: Birlikning diskursiv yuklamasini, muayyan matn turidagi (iqtisodiy, texnologik, sport) pragmatik va uslubiy vazifasini baholash.

Lisoniy materiallarni qayta ishlashda statistik-miqdoriy tahlil hamda korpus lingvistikasi metodlaridan foydalanildi. OAV matnlari tahlilida uchta statistik koʻrsatkich asos qilib olindi: fa (absolyut chastota – birlikning matnda jami uchrash soni), Pn (nisbiy ulush – oʻzlashma leksikaning umumiy lugʻat tarkibidagi foiz miqdori) va Dd (diskursiv distribusiyasi – birlikning turli tematik segmentlar boʻylab tarqalish koeffitsiyenti). Empirik baza sifatida Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, Oʻzbek tilining izohli lugʻati (OʻTIL, 2022-yilgi nashri), shuningdek, internet nashrlari (“Gazeta.uz”, “Kun.uz”, “Daryo.uz”) hamda rus tilidagi nufuzli media resurslar (“Tinkoff Jurnal”, “Xabr”, “RBK”) matnlari tanlab olindi.

Tahlillar va natijalar. Oʻzbek tili leksikasi oʻz qatlamidan tashqari forscha, arabcha, ruscha va boshqa tillardan oʻzlashgan birliklar hisobiga shakllangan. Tahlillarimizga koʻra, OʻTILning soʻnggi nashrida (2022) 3500 dan ortiq fors-tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar keltirilgan. Fors-tojik tilidan oʻzlashgan leksik birliklardan hosil boʻlgan soʻzlar oʻz qatlamga mansubligi hisobga olinganda, bunday birliklarning oʻzbek leksikasiga taʼsiri yanada aniqroq yuzaga chiqadi. Fors tilida muloqot qiluvchilar mamlakatimiz hududida, shuningdek, qoʻshni davlatlarda azaldan yashab kelgan [14]. Tabiiyki, bu fors tilidan soʻz oʻzlashtirishning faol boʻlishini taʼminlagan. Tilshunos O.Shukurov fors-tojikcha oʻzlashmalarining oʻzbek tili leksikasiga oʻzlashish jarayonini bir necha omillar orqali belgilaydi: Movarounnahrda fors-tojik xalqlari bilan muntazam qoʻshnichilik; oʻrni bilan shu tilning davlat tili darajasiga chiqib turishi; zullisonayn darajasiga ega boʻlgan ijodkor asarlarining taʼsiri; uzoq davrga ega bilingvizm hodisasining ayrim hududlarda hanuz davom etayotgani [15]. Keltirilgan omillarning barchasi muhim boʻlsa-da, ulardan birinchisi forscha birliklarning oʻzbek leksikasida muhim oʻrin tutishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Natijada, forscha soʻzlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida, xususan, kundalik muloqot, davlat boshqaruvi, fan, madaniyat va sanʼatda hanuzgacha yuqori darajada faol qoʻllanib kelmoqda. Oʻzbek leksikasida arabiy qatlam ham salmoqli qismni tashkil etadi. Arabcha soʻzlar din, madaniyat, sanʼat, ilm-fan sohalaridan tashqari kundalik maishiy masalalardagi tushunchalarni ifodalashda ham faol qoʻllanib kelmoqda. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirish VII asrdan boshlangan. OʻTILda arabcha soʻzlar 3473 ta boʻlib, maxsus pometa (a.) bilan belgilangan. Bu esa lugʻatga kiritilgan umumiy birliklarning 4 foizdan ortigʻi ekanligini bildiradi. Aslida,

arabcha asosli o'zbek tilida yasalgan birliklar ham qo'shilsa, bu foiz 2 barobardan ortiqqa oshgan bo'lardi. Ammo mutaxassislar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan birliklarni o'z qatlamiga kiritadilar [16].

Jadval 1. O'zbek tili leksikasining etimologik qatlamlar bo'yicha taqsimoti (O'TIL ma'lumotlari asosida)

№	Leksik qatlamlar (Tillari)	Mutloq soni (birlik)	Umumiy leksikadagi ulushi (%)
1	O'z qatlam birliklari (Turkiy asos)	20437	62,8%
2	Fors-tojik tili	3549	10,9%
3	Arab tili	3473	10,7%
4	Lotin tili	1315	4,1%
5	Yunon tili	1294	3,9%
6	Fransuz tili	822	2,5%
7	Rus tili (to'g'ridan-to'g'ri)	626	1,9%
8	Ingliz tili	339	1,0%
9	Nemis tili	310	1,0%
10	Italyan tili	135	0,4%
11	Boshqa tillar (Ispan, polyak, xitoy va b.)	122	0,8%

Rus tili bu o'rinda miqdoran kamdek ko'rinsa-da, yunon, lotin, fransuz, ingliz, nemis, italyan tillaridan o'zlashgan birliklarning o'zbek tiliga kirib kelishi bevosita rus tili vositachiligida ro'y berganligini inkor etib bo'lmaydi. Zero, bu so'zlar rus tilida ham o'zlashma maqomida bo'ladi. O'z navbatida, rus tilining etimologik tarkibi ham uzoq tarixiy taraqqiyotga ega bo'lib, o'z qatlam va o'zlashma qatlamlardan iborat. Rus tili o'z qatlami hind-yevropa (eng qadimgi, qarindoshlik: mat, voda, volk), umumslavyan (VI-VII asrlargacha xos: noviy, stariy, dom, xleb, leksikaning 25-30% ini tashkil etadi) [18], sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus uchun umumiy: klyon, ogorod, topor, xoroshiy) va sof ruscha (XIV-XV asrlardan keyingi qatlam: troyka, sarafan, ulitsa, rebyonok) guruhlariga bo'linadi [19]. Rus tilidagi o'zlashma qatlamlar orasida yunoncha (cherkov va ilm-fan atamalari: angel, filosofiya, teatr, shkola) va lotincha (Pyotr I davridan boshlab: respublika, konstitutsiya, student, universitet) so'zlar eng yirik poydevor hisoblanadi. Shuningdek, nemischa (shtab, buxgalter, sex), fransuzcha (XVIII-XIX asrlarda yuqori tabaqa tili sifatida: palto, kostyum, bulvar, rejissor) va bugungi kunda global maqom tufayli inglizcha (kompyuter, biznes, marketing, trend) so'zlar rus tili leksikasining boyishiga xizmat qilgan.

O'zlashma so'zlarning oavdagi faol tematik segmentlari tahlili. Zamonaviy OAV diskursini tematik segmentlarga ajratishda kommunikativ maqsad, auditoriya tipi va

dinamika mezonlariga tayaniladi. 'Faol soha' tushunchasi lingvistik jihatdan o'zlashma birliklarning maksimal funksional yuklama bilan qo'llandigan kommunikativ maydoni hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida mediamatnlarda xorijiy so'zlarning konsentratsiyasi juda yuqori bo'lgan uchta asosiy soha ajratib ko'rsatildi:

1. Iqtisodiyot va bank diskursi - Global iqtisodiy integratsiya va moliyaviy texnologiyalarning kirib kelishi OAV tilida ushbu soha terminologiyasining keskin ortishiga sabab bo'ldi. Rus tilidagi iqtisodiy nashrlarda aktiv, tranzaksiya, diversifikatsiya kabi birliklar matnning terminologik asosini tashkil etsa, o'zbek tilidagi portallarda aksiya bozori, franshiza qolipi, lizing xizmati kabi birikmalar faol qo'llanadi. Ayniqsa, bank tizimiga oid diskursda raqamli xizmatlar ommalashishi bilan scoring (skoring), overdraft (overdraft), mobile banking (mobil banking) terminlari an'anaviy lisoniy muqobillarni siqib chiqardi. Ushbu o'zlashmalar pragmatik jihatdan matnda iqtisodiy jozibadorlik, ishonchlilik va rivojlanganlik taassurotini (aksiologik yuklama) yaratishga xizmat qiladi.

2. Texnologik va axborot texnologiyalari diskursi - Zamonaviy mediamakonda IT-diskurs o'zlashma birliklarning eng intensiv shakllanadigan qatlamidir. Rus texnologik OAVida (masalan, 'Habr' portali) freymvork, data-sentr, bekap, klasterizatsiya kabi so'zlar odatiy professional leksikaga aylangan. O'zbek IT bloglarida esa inglizcha terminlar bevosita grafik integratsiya qilinmoqda: framework, icloud, frontend dasturchi. Mazkur sohadagi lingvistik moslashuvning o'ziga xosligi shundaki, rus tilida xorijiy so'zlardan fe'l yasash (guglit, skanirovat, laykat) faol bo'lsa, o'zbek tilida gibrid konstruktsiyalar, ya'ni ko'makchi fe'lli iboralar (kod yozish, stream qilish, deploy qilish) hosil qilinmoqda. Kiberxavfsizlik yo'nalishida esa phishing (fishing), ransomware (rentsomver), zero-day attack (nolinchi kun hujumi) kabi xalqaro standart terminlar mediamatnlarning o'zagini tashkil qilmoqda [26].

3. Sport diskursi - Sport OAV tili o'zining dinamikligi va emotsionalligi bilan ajralib turadi. Rus sport matbuotida uzoq vaqtdan beri muqimlashgan taym-aut, pleymeyker, sparring, dribbling so'zlari qo'llansa, o'zbek sport sharhlovchilari va onlayn nashrlari tili oxirgi yillarda transfer bozori, chempionship poygasi, pressing taktikasi, aut, korner kabi o'zlashmalar hisobiga juda tez sur'atlar bilan yangilanmoqda. Bu holat lisoniy tejamkorlik tamoyili bilan izohlanadi, chunki xorijiy birgina termin o'zbek tilidagi bir nechta so'zdan iborat tasviriy ifodaning o'rnini bosa oladi.

Mediamakonda o'zlashma so'zlarning bunday shiddatli oqimi til meyorini masalasini kun tartibiga chiqarmoqda. Klassik normativ lingvistika til meyorini adabiy tilning barqaror, kodifikatsiyalashgan va majburiy qoidalari tizimi sifatida talqin qiladi. Biroq, media muloqot makonida normativlik faqat rasmiy kodifikatsiya bilan belgilanmaydi. Shu bois, tadqiqotimizda "til meyorini" (an'anaviy, konservativ) va "media meyorini" (dinamik, o'zgaruvchan) tushunchalarini farqlashni taklif etamiz. Media meyor adabiy tilning qat'iy qoidalarga emas, balki kommunikativ samaradorlik va ommaviy takrorlanishga tayanadi [27]. N.S.Valgina ta'kidlaganidek, zamonaviy media muloqot an'anaviy normativ tizimga

bevosita bosim o'tkazmoqda [28]. Bu bosim, birinchi navbatda, imloviy variantdorlikda ko'rinadi. Rus media makonida mediaforum / media-forum, onlayn / on-layn parallel variantlari uchrasa, o'zbek OAV matnlarida podkast / podcast, videoblog / video blog, messenger / messenjer shakllari bir paytning o'zida qo'llanmoqda. Konservativ meyor rasmiy manbalarga tayanib "elektron pochta" birikmasini ma'qullasa, dinamik media meyor ixchamlik qonuniyatiga ko'ra "email" yoki "imeyl" shaklini afzal ko'rmoqda. Rus tilidagi sotsialniye seti birikmasining mediamatnlarda sotsseti shaklida qisqarishi ham ushbu qonuniyat natijasidir. O'zbek internet makoni va ijtimoiy tarmoqlarida (masalan, YouTube, Telegram kommentlarida) ruscha va inglizcha so'zlarning aralashuvi natijasida gibrid media nutq shakllanmoqda. Yosh auditoriya buni "zamonaviylik" va "erkin muloqot qolipi" sifatida qabul qilmoqda. Biroq, bunday lisoniy gibridizatsiya ko'pincha davlat tilining sintaktik va uslubiy qonuniyatlariga putur yetkazadi. Shu bois, o'zlashma so'zlarni milliy til tizimiga qabul qilishda ma'lum bir filtrlar va lingvistik ekspertiza tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa. O'zbek va rus tillari materiallari asosida zamonaviy mediadiskursda o'zlashma so'zlarning funksional-uslubiy xususiyatlarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Raqamli mediamakon globallashuv davrida o'zlashma so'zlarning til tizimiga kirib kelish muddatini keskin qisqartirdi. Ilgari o'zlashish jarayoni o'n yillab vaqt talab qilgan bo'lsa, hozirda mediamatnlar orqali bir necha kun ichida xorijiy leksika ommaviy nutqqa integratsiyalashmoqda.

2. O'zlashma so'zlarni tahlil qilishda faqat etimologik omil bilan cheklanib bo'lmaydi. Ishlab chiqilgan kompleks mezonlar (etimologik, fonetik-grafik, semantik, funksional-stilistik) xorijiy so'zning tildagi maqomini aniq belgilash imkonini beradi.

3. Iqtisodiyot, IT va sport sohalari mediamatnlarda inglizcha (anglitsizmlar) o'zlashmalarning eng yirik transformatorlari hisoblanadi. O'zbek tilida bu jarayon asosan ko'makchi fe'llar yordamida gibrid fe'liy birikmalar hosil qilish orqali kechmoqda.

4. An'anaviy adabiy til me'yor va zamonaviy media me'yor o'rtasidagi tafovut variantdorlikni keltirib chiqarmoqda. OAV tilining barqarorligini ta'minlash uchun ushbu dinamik jarayonlarni o'z vaqtida lug'atlarda kodifikatsiyalash lozim.

Amaliy tavsiyalar: – OAV tahririyatlari va raqamli nashrlar uchun xorijiy atamalarning o'zbekcha muqobillarini qo'llash bo'yicha doimiy yangilanib turuvchi elektron tavsiyaviy platforma (glossariy) yaratish;

– O'zbek tilining izohli va imlo lug'atlariga media makonda faol qo'llanilayotgan va lisoniy ehtiyojni qoplayotgan o'zlashma so'zlarni (masalan, messenjer, podkast, fishing) o'z vaqtida meyorlashtirgan holda kiritish;

– Jurnalistlar va blogerlarning lisoniy madaniyatini oshirish maqsadida mediamatnlarda gibrid nutq (bilingvizm asoratlari) va asossiz o'zlashmalardan qochish bo'yicha maxsus uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Райст Э.А., Авилова Н.С., Тимофеева Г.Г. и др. Развитие лексики современного языка. – М.: Наука, 2018. – С. 45-62.
2. Betz W. Deutsch und Lateinisch: Die Lehnbildungen der althochdeutschen Benedictinerregel. – Bonn: Bouvier, 1949. – S. 112.
3. Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing // Language. – 1950. – Vol. 26. – No. 2. – P. 210-231.
4. Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки заимствованных слов. – Алма-Ата, 2011. – С. 88.
5. Косенко Ю.И. Лексико-грамматическое освоение интернациональных терминов в XVIII веке. – СПб.: Свет, 2015. – С. 134.
6. Макеева Е.В. Западноевропейские заимствования в поэтическом языке А.С. Пушкина: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2019. – 24 с.
7. Hamdamov J. Rus tilidan o'zbek tiliga so'z o'zlashtirish tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1983. – 142 b.
8. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг тараққиёт босқичлари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 56-71.
9. Хожиев А. Тил тараққиёти ва со'з ўзлаштириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 44-52.
10. Махмудов Н. "Олинма сўз" ва "ўзлаштирма сўз" терминларининг моҳияти ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 3. – Б. 12-18.
11. Ҳасанова Д. Арабча ўзлашмаларнинг ўзбек тили номинатив тизимидаги ўрни: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 48 б.
12. Худайкулов А. Рус ва ўзбек расмий ҳужжатларида инглизча ўзлашмаларнинг тарихий тадрижи. – Самарқанд, 2021. – Б. 95-104.
13. Тўрахўжаева А.Х. Мустақиллик йилларида ўзбек ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 150 б.
14. Онушкин В.Г. Исторические контакты среднеазиатских языков. – М.: Высшая школа, 2012. – С. 78.
15. Шукуров О. Ўзбек тили лексикасининг шаклланиш омиллари // Тил ва жозоба. – Бухоро, 2015. – Б. 32-36.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ОТЎЛ). 5 жилдлик. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022.
17. Шукуров О. Замонавий ўзбек лексикасининг статистик таҳлили. – Самарқанд: СДУ нашриёти, 2023. – Б. 114-120.
18. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М.: Просвещение, 1981. – С. 67-74.
19. Суперанская А.В. Заимствование слов и его роль в развитии языка. – М.: Наука, 2009. – С. 142.
20. Володина М.Н. Язык СМИ как объект медиалингвистики // Вестник МГУ. Серия 10. Журналистика. – 2003. – № 4. – С. 22-31.
21. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. – СПб.: СПбГУ, 2005. – С. 89.
22. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – М.: Флинта, 2008. – С. 203.
23. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – С. 96.
24. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 136-137.
25. Клушина Н.И. Стилистика публицистического текста. – М.: МедиаМир, 2008. – С. 54.
26. Чернявская В.Е. Дискурс власти и власть дискурса: проблемы речевого воздействия. – М.: Флинта, 2006. – С. 112.
27. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 180-192.
28. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. – М.: Логос, 2003. – С. 214-228.